

“KONSTITUTSIYA–ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI.”

Eshbo‘tayeve Ra’no Shodiyor qizi.

Guliston davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi,

eshbotayevarano@gmail.com

[Tel: +99 894 446 31 07](tel:+998944463107)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi va eski konstitutsiyaning kelib chiqish tarzini, shuningdek, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va uning vazifalari, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari batafsil yoritilib beriladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, erkinlik, farovon hayot fuqarolik huquqlari, burchlar, qonun ustuvorligi.

Abstract; This article examines in detail the manner in which the new and old constitutions were created, as well as their role in the development of society and its governance, personal rights and freedoms.

Keywords: Constitution, freedom, well-being, civil rights, duties, rule of law.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiyamiz mamlakatimizda huquqiy, demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. Biroq yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq qisqartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Konstitutsiyaning yangi tahriri 2023-yil 30-apreldagi referendumida umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan. Yangi tahrirdagi konstitutsiyada moddalar soni amaldagi 128 tadan 155taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi, ya‘ni asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi.¹

Biz O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e‘lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uninghayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish

¹ <https://gov.uz/oz/taqiyatas/sections/o-zbekiston-respublikasi-konstitutsiyasi>

borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'suliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekiston jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini millatlararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, konstitutsiyani qabul qildik².

Konstitutsiyaning III bobi 15-modda 1-qismida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonnin gasosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiya va uning qonunlar ustunligi so'zsiz tan olinadi".

Erkinlik- bu shaxsning o'z ixtiyori bo'yicha yashash, hayot kechirish imkoniyati bo'lib, faqat shaxs qonunlariga itoat etishi zarur. Mamlakatimizda har bir kishining erkinligi, uning shaxsiy daxlsizligi bilan ta'minlanadi. Konstitutsiyaga asosan shaxsiy huquq va erkinliklar bilan bog'liq. Insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanishi ham bu huquqlarning huquq va erkinliklar tizimida ustuvor hisoblanishiga olib keladi. Biroq, avvallari, protsessual oddiy qonunlarda belgilangan inson huquqlari va erkinliklarini konstitutsiya normalari darajasida belgilanishi, bu huquq va erkinliklarini konstitutsiyaviy huquq darajasiga ko'tardi. Bundan tashqari daxlsizlik, erkinlik masalalari xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan bo'lib, ularni konstitutsiyamizda aks ettirishi konstitutsiyamizni jahon hamjamiyati oldida jozibadorligini oshiradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida shaxsning huquqiy maqomiga taalluqli normalar yetarli darajada mavjud. Shaxs huquqiy maqomining qanday bo'lishiga, eng avvalo, konstitutsiyaning 13-moddasidagi qoidalar ta'sir qiladi. Bu shaxsning huquqiy holatini belgilashda bosh prinsipdir. Unga asosan, inson, uning erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriya hisoblanadi. Shaxsning huquqiy maqomi deganda, shaxsning huquqlari, erkinliklari, burchlari, yig'indisi tushuniladi³.

Konstitutsiyaning V bobi 19-modda 2-qismida quyidagicha belgilangan: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklariga ega bo'lib,

²O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – "O'zbekiston" Toshkent, 2023

³Husanov T. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent, 2023

jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'Inazar qonun oldida tengdirlar". Bu shaxsning mavqeyini, tengligini ta'minlovchi asosiy huquq normadir. Bu yerda shaxsning tengligiga qonun oldidagi tenglik sifatida qaralmoqda. Har bir kishining qonun oldidagi tengligi adolat prinsipining o'zagidir.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada bu modda "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarga binoan hamda ushbu konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi"- degan norma bilan boyitiladi. Bundan tashqari, davlatimizning ijtimoiy davlat ekanligiga monand ravishda konstitutsiyada bir qator muhim qoidalar belgilandi:

Birinchidan, konstitutsiyamizda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarni joy bilan ta'minlash bo'yicha majburiyatlar olinmoqda.

Ikkinchidan, davlat fuqarolarining bandligini ta'minlash. Ishsizlikdan himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha majburiyatlar olinmoqda.

Uchinchidan, fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga bo'lgan ehtiyoji belgilandi va davlat ta'limining barcha shakllariga g'amxo'rlik qilishi, o'qituvchinin gmaqomiga oid normalar mustahkamlandi.

To'rtinchidan, ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga oid yangi qoidalar kiritildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy davlat tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan yangi vazifa va vakolatlar belgilandi. Umuman olganda, yangilangan konstitutsiyada davlatning ijtimoiy majburiyatlari uch baravardan ortiqqa ko'paydi.⁴

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi prezidenti va konstitutsiyaga amal qilishning kafili sifatida jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashni, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish nafaqat vazifamiz, eng avvalo, muqaddas burch, deb hisoblashimiz mumkin. Hech shubhasiz, oradan yillar, asrlar o'tadi, lekin xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan konstitutsiyamiz yangi-yangi avlodlar uchun hayo qomusi, davrning o'zi o'rtaga qo'yadigan dolzarb muammolarini yechish yo'lida mustahkam poydevor deb hisoblashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yangi O'zbekiston hayotining turli sohalarida izchil davom etayotgan keng ko'lamli, va shiddatli islohotlar natijalarini mustahkamlashda yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Bu yil mamlakatimizda "Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!" degan bosh g'oya asosida

⁴(<https://gov.uz/oz/uzedu/sections/view/25336>)

nishonlanayotgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayrami tadbirlarida ushbu omilga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. O‘zbekiston prezidentining “Yangi tahrirdagi konstitutsiya bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatli davlat qurish yo‘llarini keng ochib berdi”, deb ta’kidlagani g‘oyat ulug‘vor haqiqatlar mujassamligidan dalolat beradi. Konstitutsiyamizda davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar qat’iy belgilab berilgani bu fikrning yaqqol isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.<https://gov.uz/oz/taqiyatas/sections/o-zbekiston-respublikasi-konstitutsiyasi>
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. –B.1-8.
- 3.Husanov T. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent,2023. –B. 23-37.
- 4.(<https://gov.uz/oz/uzedu/sections/view/25336>)